

ISSN 2181-7324



O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

XABARLARI

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR
YO'NALISHI

ВЕСТНИК НУУЗ

АСТА НУУЗ



O'ZMU XABARLARI

ВЕСТНИК НУУЗ

АКТА НУУЗ

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

**JURNAL
1997 YILDAN
CHIQA
BOSHLAGAN**

**2025
1/9**

**Ijtimoiy-
gumanitar
fanlar turkumi**

Bosh muharrir:

MADJIDOV I.U. – t.f.d., professor.

Bosh muharrir o'rinbosari:

ERGASHOV Y.S. – f-m.f.d., professor.

SHIRINOVA R.X. – fil.f.d., professor.

Tahrir hay'ati:

Sagdullayev A.S. – t.f.d., akademik.

Suleymanov R.X. – t.f.d., prof.

Murtazayeva R.H. – t.f.d., prof.

Musayev N.U. – t.f.d., prof.

Urakov D.J. – t.f.d., prof.

Xolikulov A.B. – t.f.d., prof.

Yermetov A.A. – t.f.d., prof.

Zuyev A.S. – t.f.d., prof.

Jesus Fuensanta. – t.f.d., prof.

Muxamedova D.G. – psix.f.d., prof.

Karamyan M.X. – psix.f.d., prof.

Rasulov A.I. – psix.f.d., prof.

Madayeva Sh.O. – f.f.d., prof.

Sobirova U.F. – sots.f.d., prof.

Xudaykulov H.J. – ped.fan.d., prof.

Miroslav Ballay – PhD, prof.

Siddiqova I.A. – fil.f.d., prof.

Sadullayeva N.A. – fil.f.d., dots.

Arustamyan Y.Y. – fil.f.d., dots.

Boltaboyev H. – fil.f.d., prof.

Rahmonov N.A. – fil.f.d., prof.

Abdurahmonova N.Z. – fil.f.d., prof.

Pardayev Z.A. – fil.f.f.d., dots.

Mas'ul kotib: **PARDAYEV Z.A.**

TOSHKENT – 2025



Azamatjon XUDAYNAZAROV,
CHDPU mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: azamatjon.200992@gmail.com

O'zMU professori, s.f.d. I.Ergashev tarqizi asosida

PARTICIPATION OF YOUTH OF UZBEKISTAN IN PUBLIC ADMINISTRATION: SOCIOLOGICAL ANALYSIS.

Annotation

The article analyzes a sociological study on the participation of youth of Uzbekistan in public administration. The article also covers the need to carry out large-scale work in order to form and further strengthen the system of youth participation in public administration. Some problems, solutions and sociological survey analysis were given in the participation of the youth of Uzbekistan in the system of Public Administration.

Key words: Youth, youth participation, Public Administration, youth participation in public administration, Leader youth, young people.

УЧАСТИЕ МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА В ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ: СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация

В статье анализируется социологическое исследование участия молодежи Узбекистана в государственном управлении. Также в статье подчеркивается необходимость проведения масштабной работы по формированию и дальнейшему укреплению системы участия молодежи в государственном управлении. Представлены некоторые проблемы, решения и анализ социологического опроса по участию молодежи Узбекистана в системе государственного управления.

Ключевые слова: Молодежь, участие молодежи, государственное управление, участие молодежи в государственном управлении, молодежь-лидер, молодые кадры.

O'ZBEKISTON YOSHLARINI DAVLAT BOSHQARUVIDA ISHTIROKI: SOTSIOLOGIK TAHLIL

Annotatsiya

Maqolada O'zbekiston yoshlarini davlat boshqaruvida ishtiroki bo'yicha olib borilgan sotsiologik tadqiqot tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada yoshlar davlat boshqaruvida ishtiroki etish tizimini shakllantirish va yanada mustahkamlash maqsadida keng ko'lamli ishlar amalga oshirish kerakligi yoritilgan. O'zbekiston yoshlari davlat boshqaruvi tizimida ishtirok etishda ayrim muammolar, yechimlar va sotsiologik so'rovnomatahlillari berilgan.

Kalit so'zlar: Yoshlar, yoshlar ishtiroki, davlat boshqaruvi, yoshlarni davlat boshqaruvida ishtiroki, lider yoshlar, yosh kadrlar.

Kirish. Yoshlarni davlat boshqaruv xizmatiga qiziqitirish, ularni davlat xizmatiga keng jalb qilish yuzasidan amaliy ishlarining tizimli ravishda tashkil etilmayotganligi, yosh kadrlar to'g'risida o'mashib qolgan eskicha qarashlardan voz kechish, ayrim rahbarlarning yosh kadrlarga nisbatan adolatsizligi, tajribasiz kadr sifatida qarashlari saqlanib qolmoqda. Shuningdek, iqtidorli va lider yoshlar qatlamini tizimli ravishda shakllantirib borishda muammolar borligi, yoshlar va davlat tashkilotlari rahbarlari o'rtasida aloqa yo'qligi, ushbu tashkilotlar faoliyatida ularning bevosita ishtirok yeta olish imkoniyati rasmiyligicha qolayotganligini ko'rish mumkin. Mana shu muammolarni ijobiy hal etilmas ekan, huquqiy tartibga solinmas yekan, Yangi O'zbekiston deb bong urayotgan g'oyalar amalga oshmaydigan puch g'oya sifatida qolib ketaveradi.

Davlat boshqaruv xizmatiga kreativ fikrlaydigan, fuqarolar bilan diplomatik aloqaga kirisha oladigan, yuksak ma'naviyatli, ilg'or bilim va novator dunyoqarashga yega, sof vijdonli, zamonaviy IT talablarga mos yosh kadrlarning kirib kelishi xalqimizning farovonligi, mamlakatimizning ravnaqi va taraqqiyotini jadallashtiradi, yoshlarning porloq kelajagini ta'minlaydi, mamlakatimiz obro'si va nufuzini xalqaro maydonda yuqori o'rinlarga ko'taradi.

Asosiy qism. Yoshlarning davlat boshqaruvi va ijtimoiy-siyosiy hayot sohalarida faol ishtirokini ta'minlash muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu yoshlarning

ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda obyektiv ijtimoiy roli bilan bog'liq. Uning u yoki bu siyosiy tizimga integratsiyasi, ular bilan moslashuvchanligi jamiyatda o'zaro hamkorlik munosabatlarning shakllanishi va uning birligi hamda xavfsizligining saqlanib qolishi omili hisoblanadi.

Prezidentimizning 2020-yil 25-dekabrda o'tkazgan Yoshlar forumidagi nutqi, Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda joriy yil dasturida qayd etilgan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi hududiy filiali qoshida 20 yoshdan 35 yoshgacha oliy ta'lim muassasalari talabalarini hamda davlat organlari va tashkilotlarida faoliyat yuritib kelayotgan yosh davlat fuqarolik xizmatchilari uchun "Kelajak liderlari" klubi faoliyati tashkil etildi. Mazkur klubning asosiy maqsadi yosh vatanparvar liderlar qatlamini shakllantirishga qaratilgan. Ular o'z ortidan tengdoshlarini ergashtirib, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini targ'ib qilish hamda davlat fuqarolik xizmatida istiqbolli kadrlarning ulushi ortishiga xizmat qiladi[1].

Shu o'rinda oliy ta'lim muassasalari talabalarini ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faolligini aniqlash maqsadida "O'zbekiston yoshlarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faolligini yuksaltirish: muammo va yechimlar" mavzusida sotsiologik tadqiqot o'tkazildi. So'rovda O'zbekiston Milliy universiteti, Urganch davlat universiteti va Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabalarini ishtirok etdilar.

Sotsiologik so'rovnoma jami 2031 nafar respondent qatnashdi, jumladan, yerkaklar – 486 kishi (24,1%), xotin-qizlar – 1532 kishi (75,9%).

Respondentlarni yosh tuzilmasi: 14-18 yosh – 249 kishi (12,3%), 19-25 yosh – 1566 kishi (77%), 26-30 yosh – 120 kishi (5,9%), 31-35 yosh – 42 kishi (2,1%), 36-40 yosh – 27 kishi (1,3%) va 40 yoshdan yuqorisi – 26 kishi (1,2%) tashkil qildi.

So'rovnoma ishtirok yetgan yoshlarning – 1861 nafari (92,5%) OTMlari talabalari, davlat tashkilotida ishlaydigani – 1 jadval


92 nafar (4,5%), Xususiy korxona/firmada ishlaydi – 23 nafar (1,2%), Vaqtincha ishsiz – 35 nafar (1,7%) ni tashkil etdi.

Respondentlardan "Faolligingizni kim sifatida namoyish etishni xohladingiz?" so'ralganda 1233 nafari (61,4%) Rahbar, 362 nafari (18%) Tashkilotchi, 156 nafari (7,8%) Ijrochi, 31 nafari (1,5%) Tomoshabin, 162 nafari (8,1%) Targ'ibotchi, 53 nafari (2,6%) Javob berishga qiynalaman, 12 nafari (0,6%) o'zining fikrlarini bildirishdilar[2](1 jadval).




Mazkur so'rovnoma respondentlardan "Sizning fikringizcha, yoshlarni davlat boshqaruvi tizimiga ishga jalb qilish uchun qanday shart-sharoitlar yaratish zarur? (4 tagacha variantni belgilashingiz mumkin)" so'ralganida ko'pchilik respondentlarni 50,2% i (984 nafari) ta'lim muassasa bilan davlat boshqaruvida ishlashni xohlaydigan yoshlarni aniqlash bo'yicha yaqin hamkorlikni ta'minlash javob variantlarini belgilashgan. Qolgan javob variantlariga respondentlar quyidagicha belgilashgan: 739 nafari (37,7%) yoshlarni ishga joylashish bo'yicha ochiq tanlovlarni tashkil etish, 732 nafari (37,3%) davlat boshqaruvidagi yoshlarga ularning ehtiyojlari

va ko'nikmalari doirasida ish haqi berish, 732 nafari (37,3%) byurokratiya va korrupsiyani oldini olish, 731 nafari (37,3%) stajirovka o'tash va kasbi bo'yicha o'qish imkoniyatlarini berish, 558 nafari (28,5%) davlat boshqaruvida ishlashni xohlaydigan yoshlarni aniqlash bo'yicha yoshlar tashkilotlari bilan bevosita hamkorlikni ta'minlash, 330 nafari (16,8%) mintaqaviy darajadagi davlat tuzilmalarida yangi ish o'rinlarini yaratish zarur, 280 nafari (14,3%) xizmatda mansab o'sish imkoniyatlarini berish, 90 nafari (4,6%) Javob berishga qiynalaman degan javob berishgan [2] (2 jadval).



Yana shuni ta'kidlash kerakki, mazkur so'rovnoma respondentlardan "O'zingizni davlat boshqaruvida ishlashni xohlashingiz sababini ayting? (4 tagacha variantni belgilashingiz mumkin)" so'ralganda, ular quyidagicha javob variantlarini belgilashdilar: 1374 nafari (69,6%) mamlakat va jamiyatni rivojlantirishga o'z ulushini qo'shish imkoniyati, 763 nafari (38,7%) muhim boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ishtirok etish imkoniyati, 589 nafari (29,9%) siyosiy partiyalar ishtirok etish orqali siyosiy boshqaruv sohalarida faol

qatnashish imkoniyatining mavjudligi, 501 nafari (25,4%) davlat xizmatchilari toifasiga mansub bo'lish imkoniyati, 445 nafari (22,6%) davlat boshqaruvida ish haqi va rag'batlantirishlarning yuqori darajada ekanligi, 324 nafari (16,4%) xizmatda mansab o'sish imkoniyati, 300 nafari (15,2%) shaxsiy manfaatlarni amalga oshirish imkoniyati, 140 nafari (7,1%) javob berishga qiynalaman va 19 nafari (1%) o'zining fikrlarini bildirishgan (3 jadval).



Yoshlarning yosh xususiyatlari muhim strategik subyekt sifatida davlat hokimiyati va boshqaruvidagi demokratik o'zgarishlar bilan bog'liq holda yoshlarni davlat hokimiyati va boshqaruvida jalb etishda yangicha yondoshuvni va yoshlarni davlat hokimiyati boshqaruv bo'g'inlarida kengroq foydalanish strategiyasi boshqaruvida yoshlarga xos bo'lgan yangicha qarash, siyosiy madaniy tafakkur, boshqaruvni yangicha tashkil etish va undagi ayrim yosh bilan bog'liq bo'lgan salbiy holatlarni oldini olishga xizmat qiladi. Islohotlarni amalga oshirishga keng demokratik imkoniyat yaratib beradi. davlat hokimiyati va boshqaruv tizimida yoshlarning ishtiroki va davlat siyosatida unga alohida ahamiyat berish strategik xususiyatga ega. Bu mamlakat taraqqiyotining istiqbolini belgilab beruvchi ko'rsatkichdir [2].

Xulosa. "Yoshlar" har bir jamiyat ijtimoiy va aholi tarkibida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan demografik qatlam hisoblanadi. Yoshlar ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha sohalar bilan uzviy aloqador bo'lgan strategik subyektdir. Yoshlar

davlat hokimiyati va boshqaruvida, o'ziga xos ijtimoiy tuzilishga, tarkibga ega bo'lgan, uzluksiz dinamik tarzda yangilanib turadigan faol sotsial qatlamdir.

Yangi O'zbekiston taraqqiyoti strategiyasini qurish borasida olib borilayotgan islohotlarda yoshlar davlat boshqaruvi tizimida ishtirokini oshirish, novator va kreativ fikrlaydigan, keng dunyoqarash va chuqur bilimlarga ega tashabbuskor, mamlakat manfaati yo'lida bor kuch-g'ayrati, bilim va salohiyatini safarbar qiladigan, mamlakat istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladigan yoshlarni tarbiyalash zarur.

Davlat boshqaruvida yoshlar ishtiroki oshib borishi belgilangan islohotlarning samarali amalga oshirilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu jamiyat taraqqiyotida o'z istiqboliga ega. Yuksak ma'naviy salohiyatga ega bo'lgan yoshlarsiz Yangi O'zbekiston kelajagini tasavvur etish qiyin. Buni yoshlar his etishlari va alohida mas'uliyat bilan Yangi O'zbekiston ijtimoiy hayot sohalarida faol ishtirok etishlari zarur.

ADABIYOTLAR

1. https://uza.uz/uz/posts/kelazhak-liderlari-klubining-vazifalari-nimalardan-iborat_277492
2. Ўзбекистон ёшларининг ижтимоий-сиёсий жараёнларда фаоллигини юксалтириш: муаммо ва ечимлар мавзусида социологик сўровнома. https://www.researchgate.net/publication/369913300_Uzbekiston_eslarining_iztimoij-siesij_zaraenlarda_faolligini_uksaltiris_muammo_va_ecimlar_mavzusida_sociologik_surovnom
3. Эргашев И., Худайназаров А. У. Ўзбекистон жамияти бопқарувида ёшлар фаоллигини оппирининг маънавий омиллари //Журнал Социальных Исследований. – 2020. – Т. 3. – №. 5.
4. O'rinbayevich X. A., Universiteti O. M. Yangi O'zbekiston siyosiy jarayonlarida yoshlar ishtirokining tuzilmaviy-funksional tahlili. – 2023. 46-51.
5. Urinbaevich K. A. Factors for Increasing the Activity of Youth of Uzbekistan in the Field of Science and Education //Middle East Journal of Applied Science & Technology. – 2022. – T. 5. – №. 1. – S. 33-37.
6. Abdurakhmonovich S. B., Urinbaevich K. A. The Role of Reading in Increasing the Activity of Youth in Socio-Political Processes //Middle European Scientific Bulletin. – 2022. – T. 23. – S. 222.
7. Urinbaevich K. A. youth of Uzbekistan as a subject of changes in political processes //Open Access Repository. – 2023. – T. 4. – №. 3. – S. 1455-1464.
8. Ibodulla E., Bo'riyevich A. B., Azamatjon X. Transformation of Youth and the System of Values //Mediterranean Journal of Basic and Applied Sciences (MJBAS). – 2022. – T. 6. – №. 4. – C. 24-32.
9. Xidirov, A., Mamatmurodov, B., Mamatqulov, E., & Xudaynazarov, A. (2022). Yoshlar ongida milliylikka bo'lgan ishonchni kuchaytirishda axloqning o'rni. Conferencea, 344-347.
10. Orinbaevich K. The Role of Youth Parliaments in Increasing Youth Participation (International and Uzbekistan Examples) //Jurnal ISO: Jurnal Ilmu Sosial, Politik dan Humaniora. – 2024. – T. 4. – №. 2. – C. 10-10.
11. Xudaynazarov I. E. A. Yoshlar ishtirokini oshirishda yoshlar parlamentlarining o'rni (xalqaro va o'zbekiston misolida) //News of the NUUZ. – 2024. – T. 1. – №. 1.12. – C. 250-252.

Raximova M. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish masalasiga psixologik yondashuv.....	154
Raxmanov A. Tibbiy ta'lim muassasalari talabalarida xalq tabobatini integratsiyalash orqali tibbiy madaniyatni rivojlantirish modeli.....	157
Sabirov U. Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida sanoat tarmoqlarida vositachilik munosabatlarining transformatsiyasi.....	161
Salimova S. Bo'lajak biologiya o'qituvchilari kasbiy-metodik kompetensiyalarini baholash vositalarini loyihalash va validatsiyalash.....	167
Saribayeva N. Zamonaviy jamiyatda jamoatchilik fikrini baholash va tahlil qilish usullari	170
Solayev O. Turli emotsional holatlarda vaqtni idrok qilishning psixologik xususiyatlari	174
Sotivoldiyeva S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirishda miyaning faol zonalariga yo'naltirilgan neyropedagogik topshiriqlarning didaktik asoslari.....	177
Sultonov Q. "Oila-talaba-ta'lim muassasasi" hamkorlik mexanizmining nazariy asoslari	180
Талипова М. Метакогнитивная осознанность как фактор развития академического контроля студентов.....	183
Tashpulatova N. Raqamli texnologiyalardan foydalanish modellari.....	186
Toshxodjayev M. Harbiy xizmatchilarda kasbiy stress kelib chiqishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar	189
To'rayeva A. Oilaviy muhitning sog'lomlashuvida mehnatga oqilona munosabatni shakllantirishning o'rni	192
Umaraliyeva F. Oliy ta'limda aralash ta'lim tizimiga elektron ta'lim resurslarini samarali integratsiya qilish omillari ..	195
O'rinova N. STEAM ta'limi asosida maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	199
Urinoval U. The impact of self-confidence on the development of public speaking competence	203
Usmanov M. Davrni idrok etishning professional faoliyatdagi ahamiyati	206
Xalmirzayev M. Neyropedagogik texnologiyalar yordamida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish	210
Xoliyigitova N. Ta'lim tizimida kasbiy karyera shakllanishining va ijtimoiy-psixologik muammolari.....	213
Xudaynazarov A. O'zbekiston yoshlarini davlat boshqaruvida ishtiroki: sotsiologik tahlil	217
Xo'jamberdiyeva J. Atom fizikasi fanidan elektron orbital bulutlari shakl o'zgarishining to'liq funksiyaga bog'liqligini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari	220
Hasanov M. Abu Nasr Forobiy ta'limotida davlat va jamiyat boshqaruvini insonparvarlashtirish tamoyillari	223
Shamshimetov T. Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida huquqbuzarliklarni oldini olishning pedagogik mexanizmlari	227
Shermatova U. Differensial adabiy ta'limni axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etish asoslari.....	230
Shernazarov Sh. Yangi O'zbekistonda ijtimoiy islohotlarning rivojlanishi va kasbiy professionalashuv	234
Shoyqulov B. Kasbiy ta'lim tizimida raqamli baholash texnologiyalarining metodik sifat ko'rsatkichlari va samaradorligi	238
Yuldashev M. Talabalarining shaxsiy kasbiy sifatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari	241
Yusuvaliyeva A. Zaif eshituvchi o'quvchilar ijtimoiy moslashuvida xavotirlanish hissining o'rni.....	244
Yusupova N. Individual ta'lim trayektoriyasi orqali lingvistik kompetensiyani rivojlantirish metodlari	247
Filologiya	
Абдуазизова Д. Невербальные средства в контексте межкультурного взаимодействия	250
Bekmurotova Sh. O'zbek tilida juft so'zlarning o'rganilishi	253
Давлатова Ш. Понятие «Языковая картина мира» и его место в теории и практике перевода(на примере произведений А.П.Чехова).....	256
Jumayeva U. "Gender representation in proverbs across cultures: a comparative study of english and uzbek proverbs".....	260
Зиганшина А. Эволюция рассказа в системе малой прозы: от классической модели к постмодернистской вариативности	265
Ismoilova M. Sentiment and pragmatic analysis of time expressions in english and uzbek: a corpus-based lingua-cultural approach.....	268
Karimova B. "Tib qonunlari" asari bayonida tibbiy terminlar diskurs tahlil va ularning zamonaviy shakllari (Kardiologiya sohasi misolida).	271
Karimova F. Diminutives in English lullabies	274
Qayumberdiyeva N. Zamonaviy she'riyatda obrazlashuv	277
Madieva M. Syntactic features in the translation of brand names	280
Madiyorova V. Tarjimada gender xoslangan birliklar tasviri xususida	283
Narxodjayeva X. Til va inson omili: pragmatik yondashuvning mohiyati	286
Ortiqova M. Qiyosiy adabiyotshunoslikning o'ziga xos xususiyatlari	289
Sotvoldiyeva M. XX-XXI asr Sharq adabiyotida ota obrazi	293
Suyunova M. The linguacultural study of speech acts to develop national language corpora	296
Umurova F. Internet muloqotida xushmuomalalikni lisoniy va nolisoniy ifodalanishi	300
Xamidova M. Badiiy matnning pragmatik va sotsiopragsmatik xususiyatlari (O'Imas Umarbekov asarlari tahlili misolida)	303
Xoljo'rayeva M. O'zbekcha-inglizcha ijtimoiy-siyosiy terminlarda sinonimiya va antonimiya	306
Xolmuminova N. Amiriy she'riyatida an'anaviy obrazlar.....	309
Xudayarova S. Ko'zi ojizlarda so'z ma'nosining o'zlashtirilishi: psixolingvistik nazariyalar asosida tahlil	311
Yuldasheva G. "Or-nomus" konsepti orqali tilning ijtimoiy va axloqiy funksiyasini tadqiq etish.....	314
Yusupova Sh. Milton verbal ta'sir modelining suggestive xususiyatlari	317
Yakubov S. Akademik yozuv va nutq madaniyati fanlarini oliy o'quv yurtlarida o'qitishning dolzarb masalalari	320